

# **XXI ASRDA IQTISODIYOT VA TA'LIM INTEGRATSIYASI**

## **ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**



Aprel 2022

[www.2ndSun.uz](http://www.2ndSun.uz)

# XXI ASRDA IQTISODIYOT VA TA'LIM INTEGRATSIYASI

ILMIY ONLAYN KONFERENSIYASI MAQOLALAR

## TO'PLAMI

2ndSun – 2022

## MAQOLALAR:

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AKT VA UNING QULAYLIKLARI .....	3
BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING MAQSAD VA VAZIFASI .....	5
MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH, TARBIYA VA O'QUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH.....	11
TEXNALOGIYANING TA'LIMDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	16
DAVLAT RIVOJI YO'LIDA KADR SALOHIYATI O'RNI .....	22
TA'LIM TIZIMIDA INKLYUZIV TEXNOLOGIYA VA UNDAGI MUAMMOLARGA YECHIM .....	27
TA'LIMDA AXBOROT MUHITINING SHAKLLANISHI .....	35
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING AXBOROT TRXNOLOGIYALARINING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI, MAQSADI VA VAZIFALARI .....	40
MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI O'RNI VA BUGUNGI KUNDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	47
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA ILMIY IZLANISHLAR OLIB BORISH TENDENSIYALARI .....	53
MAXBOROT -KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIBGACHA TA'LIM SOHASIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH.....	60

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AKT VA UNING QULAYLIKLARI****Sottiqulova Dilfuza Rahmonjonovna,***Namangan viloyati, Yangiyo'r'g'on tumani**31-sonli mактабning Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada AKT dan foydalanish va uning afzalliklari haqida aytib o'tilgan. Boshlang'ich sinfda o'quvchilarni darsdagi faoliyatida AKT ning o'rni katta ekanligi, qiziqarli va mazmunli dars o'tish mumkinligi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot, kompyuter vositalari, interfaol doska, samaradorlik, o'yin shakli metodikasi.

Yangi texnologiyalar kun sayin rivojlanib, mamlakatda axborotlashtirish jarayoni tez suratlar bilan rivojlanayotgan ayni davrda ta'lism soxasida axborot resurslarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ammo axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining jadal suratlar bilan rivojlanishiga qaramay, ta'lism tizimiga zamonaviy texnologiyalarni o'qitishning yangi metodlari, shakllari va vositalari bo'yicha pedagogik tadqiqotlar natijalarini joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lism jarayoniga AKT lardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarining AKT bo'yicha malakalarini oshirish lozim. O'quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarning tadbiq etilishi o'quvchilarning faol bilim olishini taminlaydi, ularni individual va intellektual salohiyatini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Aytish joizki boshlang'ich ta'limga kichik yoshdagagi o'quvchilarning diqqatlari mustahkam emas, ular ko'pincha diqqatlarini bir faoliyat turidan ikkinchisiga qaratishni bilmaydilar. Biroq o'quvchining o'ziga doskada har qanday obyektni, geometrik shakllar, yozuvlarni bajarish, rangi, kattaligi, shaklini o'zgartirish imkoniyati berilganda diqqati kuchayadi. Masalan, matematika darsida kompyuter vositalari, interfaol doskadan foydalanilishi bilan bolalarning qiziqishlari ortishi kuzatiladi va shu bilan birga, darsning jadalligi oshadi. Barcha o'quvchilar dars jarayoniga jalg qilinadilar. Material hajmining ko'pligi bolalarni qiynamaydi, balki faoliyat o'yin shakli metodikasi bo'yicha faol o'qishga imkon beradi. Bu juda muhim omil, chunki olti-to'qqiz yoshli bolaning faoliyat turi o'yin hisoblanadi.

Hozirgi zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan axborotlashtirish jarayonlari ta'lism tizimini jadal takomillashtirishni, davlat, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlar hamda manfaatlarini hisobga oluvchi ta'lism maqsadlarini aniqlashni talab qilmoqda. Shu sababli yangi ta'lism standartlarining

rivojlantiruvchi imkoniyatlarini ta'minlash ustivor yo'nalish bo'lib qolmoqda. Yangi ijtimoiy talablar o'quvchilarni umummadaniy, shaxsiy va idroklari rivojlanishi kabi ta'lif maqsadlarini belgilab bermoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar (AKT) - foydalanuvchi manfaatlari yo'lida axborotlarni to'plash, qayta ishslash, saqlash, tarqatish va foydalanish maqsadlarida birlashtirilgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy-texnik vositalar to'plamidan iboratdir. AKT vositalaridan foydalanish quyidagi masalalarni amalga oshirishni o'z maqsadi qilib qo'yishi kerak:

1. O'quvchilarning materiallari yordamida ta'lif maqsadiga erishiladi; kichik mакtab yoshidagi bolalarni mustaqil ta'lif olishlari va o'z-o'zlarini nazorat qilishga oid malakalari rivojlanadi, ta'lifning qulayligi ta'minlanadi;
  - o'quvchilarning didaktik qiyinchiliklari kamayadi;
  - kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarning darsga nisbatan faolligi ortadi;
  - boslang'ich mакtab o'quvchilari havfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda kompyuterda ishslash malakalarini egallaydilar.

Boslang'ich sinf darslarida AKT dan, elektron darsliklar asosida harakatli, didaktik, ko'rgazmalilik, tovushli sermazmun tarzda qo'llash orqali yuqori darajadagi samaradorlikka erishish mumkin. Ta'lif jarayonida AKT dan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilar uchun quyidagi qulayliklarni yaratadi:

- o'quvchilani fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi;
- o'quvchilarning kelajakdagi faoliyatiga ko'mak beradi;
- o'qitishning yangi usullaridan foydalanishga imkon beradi;
- elektron resurslardan oqilona foydalanishga imkoniyat yaratadi;
- turli yoshdagi o'quvchilarni, turli yoshdagi o'qituvchilar bilan moslashishini ta'minlaydi;
- dars jarayonida AKT vositalaridan foydalanish o'qituvchilar va o'quvchilar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi va dars jarayonining sifatli hamda sermazmun bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, boslang'ich ta'lifda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bolalar dunyo qarashini shakllantirishda, ruhan va aqlan sog'lom bo'lib voyaga yetishlarida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bespalko V.P. Pedagogika va ilg'or o'qitish texnologiyalari. - M.: Institut prof. arr. RAO, 1995.- 336 b.
2. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 167-168.
3. Minamatov, Y. E. U. (2021). APPLICATION OF MODULAR TEACHING TECHNOLOGY IN TECHNOLOGY. Scientific progress, 2(8), 911-913.
4. Минаматов, Ю. (2021). УМНЫЕ УСТРОЙСТВА И ПРОЦЕССЫ В ИХ ПРАКТИЧЕСКОЙ ЭКСПЛУАТАЦИИ. Eurasian Journal of Academic Research, 1(9), 875-879.

**BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY  
YONDASHUVLARNING MAQSAD VA VAZIFASI**

**Abdullahjonov Davronjon Shokirjon o'g'li**

Qo'qon Universiteti, biznes kafedrasи

**Abdushuxratova Durdona Anvarovna**

Qo'qon universiteti talabasi

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilarni tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lif dasturlari va yangi davlat ta'lif standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholash qisqacha yoritilgan.

**Annotation.** This article focuses on the development of students' critical and creative thinking, independent search for information, analytical competencies and skills, the introduction of general education programs and new state educational standards that meet the requirements of a modern innovative economy, o. 'Assessment of students' knowledge is briefly covered.

**Kalit so'zlar:** Pedagogika, pedagogik texnalogiya, pedagogik madaniyat, ped texnalogiya.

**Keywords:** Pedagogy, pedagogical technology, pedagogical culture, pad technology.

Zamonaviy ta'limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta'lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an`anaviy kategoriylar bo'lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriylar ma'lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi.Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi. Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo'lishi kerakligini anglashi lozim.

Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak.Shu erda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Mustaqil o'ylay oladigan tafakkur yuritib to'g'ri ma'qul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakillantirish va tarbiyalash kerak deb ta'kidlaydi hurmatli yurtboshimiz o'z nutqlarida.Darhaqiqat yoshlarni zamonaviy fantexnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib etishishiga zamin yarataolmaymiz.Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan umumiyo'rta ta'lim maktablarining deyarli barchasi yangitdan qurilgan va kapital ta'mirlangan qariyb 10 mingta mакtab zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari bilan jihozlandi.

Pedagogik madaniyat – pedagogning shaxs va mutaxassis sifatida muayyan xulq-atvor, odob, muomala, xatti-harakat ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish darajasi; pedagogning kasbiy vazifalarni hal qilish usul va vositalarini o'zlashtirganlik, pedagogik bilimdonlik, takt, texnika, madaniyatni namoyon qila olishning yuqori darajasi. Pedagogik odob – pedagog (o'qituvchi) oldiga uning o'ziga, kasbiga, jamiyatga, bolalarga va o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan munosabatda samimi, ochiq bo'lishiga nisbatan qo'yiladigan ahloqiy talablar tizimi.

Shu konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lism

dasturlari va yangi davlat ta'limga standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish yo'lida PIRLS tadqiqotida muvaffaqiyatli ishtirok etish o'ziga xos o'rinni tutadi. Shunday ekan, ta'limga sifatini baholash sohasidagi yangi xalqaro tadqiqot haqida xalq ta'limi tizimi xodimlari, o'qituvchilar hamda ushbu sohaga qiziquvchilar uchun ma'lumotlar yetkazib berish maqsadida «Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash» nomli metodik qo'llanma ishlab chiqildi. Mazkur qo'llanmada PIRLS tadqiqoti, uning o'ziga xos xususiyatlari, nazorat-sinov materiallarining ishlab chiqilishi haqida umumiyligi ma'lumotlar berilgan. Pedagogika- bu lotinchalik so'zdan olingan bo'lib, "payne" bola, "agogeyn" – yetaklamoq degan ma'noni bildiradi. topgan.

Ta'limga kafolotlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko'rindan diki natija maqsadga qancha yaqin bo'lsa, o'quv-tarbiya jarayoni shuncha samarador hisoblanadi va bu ta'limga zamонавиyy texnik vositalari va ilg'or texnologiyalarni amalga oshirishning muhim jihatlaridan bo'lib, ikkinchi talqin, ta'limga-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasini, natijasini oldindan o'rganish, qayd etish yo'llari bilan o'qituvchining kafolotlangan natijaga erishishini ta'minlash. Vosita muayyan o'qitish metodi yoki usullardan muvaffaqiyatli foydalanish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materialidir.

O'z mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniqligiga belgilangan tizimni ifodalaydi.

Ped texnologiya bu -oldindan loyhalangan ma'lum bir pedagogik tizimni amliyotga joriy qilish. Pedagogik tizim bu shaxsga maqsadli pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan metodlar, vositalar va jarayonlar yig'indisi. Maqsadimiz o'quvchilarni oldindan bilimini mukammalashtirib uni samarali va sifatli bilimga ega bo'lishga ta'sir berish.

### **Tahlil va natija**

Ta'limga texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma'lum sohasini qamrab oladi. Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o'quvchilarning bilim faoliyatini mavzu bo'yicha

belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir.

Boshlang'ich sinflarda ta'lif sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv - o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra, ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan, u yoki bu tasnifga tegishli bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash barcha ta'lif muassasalarining oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganini ko'zda tutish kerak. Yoxud o'qitish metodlari bevosita ta'lif amaliyoti bilan aloqador konsepsiyasidir. Boshlang'ich sinflarda "O'qish" darslarida matnlar berilgan bo'lib, shulardan biri "Alisher Navoiy" matnidir. Matn badiiy va ilmiy uslubda berilgan.

Mashq shartida matnlarni taqqoslab, ularning o'xhash va farqli tomonlarini aniqlash topshirilgan. Mazkur matnni "Aqliy hujum" metodi yordamida o'rganish ko'zlagan maqsadga erishish imkoniyatini yaratadi. Bu metod asosida matn bilan bir necha bosqichda olib boriladi.

1-bosqich. O'quvchilarni mavzuni tushunishga tayyorlash. O'tgan mashg'ulotlarda berilgan nutq usullariga oid ma'lumotlar esga olinadi va takrorlanadi, har bir nutq uslubining o'ziga xos xususiyatlari yodga olinadi. Chunki matnlarni taqqoslash uchun o'quvchilarda nutq uslublariga oid ma'lumotlar yetarli bo'lishi kerak. Nutq uslublariga oid bilimlar yodga olingandan so'ng har ikki matn o'quvchilar tomonidan mustaqil o'qib chiqiladi. O'quvchilar matn mazmunini tushunishga harakat qiladilar.

2-bosqich. Berilgan matnlarning o'xhash tomonlarini aniqlash. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savolni beradi? Har ikki matn qaysi jihatdan birbiriga o'xshaydi? O'quvchilar mazkur savolga shunday javob beradilar: - har ikki matn ham Alisher Navoiy haqida: - mantning mazmuni bir xil: - har ikki matndan ham Navoiy ijodi haqida fikr bildirilgan: - har ikkala matnda ham shoirning ustozlari nomlari keltirilgan: - Navoiyning turkiy tilda ijod qilganligi aytilgan: - Navoiyning jahonga tanilgan shoir ekanligi aytilgan - Forsiy shoirlarning Navoiy ijodiga munosabati ifodalangan. O'qituvchi o'quvchilarning Navoiy ijodiga umumlashtiradi va o'z munosabatini bildiradi.

3-bosqich. Har ikki matn asosida badiiy va ilmiy uslubga xos xususiyatlarni aniqlash. Bu bosqichda har bir uslubning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Birinchi matnda badiiy uslubga

xos quyidagi xususiyatlar qo'llangan: tasviriy ifoda (zanjirband she'r) ko'chma ma'noli so'zlar (she'riyat osmoni, yulduzlarga hira tortdi, shuhratiga soya soldi). Ikkinchi matnda ilmiy uslubga xos quyidagi xususiyatlar qo'llangan: raqamlar (1441 yil tug'ilgan, XV asr 60-yillar), aniq dalillar Yevropa va Osiyo davlatlarini, Nizomiy Ganjaviy, Sadiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy kabi tarixiy shaxs nomlari, A.Jomiyning Navoiy haqidagi fikri keltirilgan. "Alisher Navoiy" matni shu metod yordamida o'rganilsa, o'quvchilar matn mazmunini yaxshiroq anglaydilar ularning mazmuniga chuqurroq kirib boradilar matnlarni qiyoslash orqali ularning mohiyatini teran idrok etadilar va interfaol metodlar o'quvchilarni fikrlashga, darslarda faol qatnashishga, darslarda faol ishtirokchi bo'lishiga o'rgatadi. Shunday qilib, yuqoridagi interfaol metodlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish asosida ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashish dasturi amal bo'lib qoladi.

### Xulosa

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida o'tkazilayotgan tub islohotlarning mazmuni bugungi kunda ta'lim jarayonini loyihalashga yangicha yondashuv bilan boyib bormoqda. Ta'limga zamonaviy yondashuv ta'lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv -vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimdir.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. [uz/ru/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/eshitishida-va-ko-rishida-nuqsoni-bo-lgan-bolalar](http://uz/ru/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/eshitishida-va-ko-rishida-nuqsoni-bo-lgan-bolalar)
2. Engaging Deaf and Hard of Hearing Students in the School Library: A Handbook for Teacher-Librarians Nadene Eisner University of Illinois at Urbana-Champaign Graduate School of Library Information Science 2 May 2012
3. <http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/116/Maxsus%20pedagogika.pdf>
4. Shokirjon o'g'li, A. D., & Solijon o'g'li, T. U. (2022). The Application of Digital Technologies to Enterprises and Organizations Will Help Reduce Social and Economic Costs. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 4, 131-140.

5. Abdullajonov, D. (2022). Raqamli texnologiyalar orqali Yangi O'zbekistonning Iqtisodiyotini rivojlantirish, Raqamli Iqtisodiyotning istiqbollari: Raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, raqamli O'zbekiston, AKT, "Bir million dasturchi", axborot xavfsizligi, elektron tijorat. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000006).
6. Abdullajonov, D. (2022). Корхонада ходимларнинг меҳнат мотивациясини кучайтиришнинг ижтимоий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш: меҳнат мотивациясини, хориж тажрибаси, самарадорлиги, корпоратив тизимлар, инновацион иқтисодиёт. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000005).
7. Қосимова, Г. Қ. Қ. (2021). Мамлакатимиизда камбағаллик даражасини камайтириш йўллари. Scientific progress, 2(7), 808-816.
8. O'zbekiston Respublikasi prezidentining «Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga 1-ilova "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. 2020 yil 5 oktyabr, PF-6079-son.
9. Kambarov, J., Rakhmatov, U., Rakhmonov, N., & Sultanova, Y. (2020). Problems and solutions for the implementation of the industry-4.0 program in Uzbekistan. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2677-2683.
10. Toxirov, R. S., & Raxmonov, N. R. O. G. L. (2021). DASTURIY TA'MINOT YORDAMIDA ZAMONAVIY BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 1(1), 181-186.
11. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 250-254.
12. Rahmonov, N. (2021). KORONA INQIROZNING XITOY VA O'ZBEKİSTON SAVDO-IQTISODIY ALOQALARIGA TA'SIRI. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000003).
13. Rahmonov, N. (2021). Бизнес Режа Тузишда Математиканинг Аҳамияти. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000003).
14. G.Q.Qosimova, F.M.Mulaydinov. Iqtisodiyot va biznesda innovation rivojlanish muammolari. Ilm va madaniyat yosh olim va etakchilar nighohida: xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi, 26 iyun 2020 y. – Qo'qon. 172-174 betlar.

**MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH,  
TARBIYA VA O'QUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH****Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li**

Qo'qon Universiteti, biznes kafedrasи o'qituvchisi

**Habibullayeva Rayhona**

Qo`qon Universiteti, boshlang`ich va ta`limy o`nalish talabasi,

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimizda rivojlanib borayotgan maktabgacha ta'lismidagi yangiliklar, olib borilayotgan ulkan islohotlar, yangi barpo bo'layotgan maktabgacha ta'lism tashkilotlari, oilaviy nodavlat va xususiy bog'chalarining rivojlanishi, maktabgacha ta'lism tizimida bola qamrovini yanada oshirish bo'yicha chora -tadbirlar haqida so'z boradi.

**Annotation.** This article discusses the innovations in the developing preschool education system in the country, the ongoing reforms, the emergence of new preschool education organizations, the development of family non-governmental and private kindergartens, measures to further increase the coverage of children in preschool education -We are talking about measures.

**Kalit so`zlar:** maktabgacha ta'lism, uzlucksiz ta'lism, "Ilk qadam" davlat dasturi, ta'lism, tarbiya, taraqqiyot, rivojlanish, yangilik, pedagog.

**Keywords:** preschool education, continuing education, state program "First Step", education, upbringing, development, innovation, pedagogue.

**Kirish**

Maktabgacha ta'lism tizimi uzlucksiz ta'limming birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir. Mutaxassislarining ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Shu bois bolalarining sog'lom va bilimli, yetuk kadrlar bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi juda muhim o'rinn tutadi. Maktabgacha ta'lism tizimining qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanini Prezidentimizning bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolaning fikrlash darajasi o'rtasidagi farq

xususidagi fikrlaridan ham bilish mumkin. Darhaqiqat, bugun maktabgacha ta'lismiz tizimini qayta ko'rib chiqish masalasi davlat siyosati darajasidagi masalalardan biriga aylandi. Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lismiz vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori mamlakatimiz ta'lismiz sohasida yangi tizimni yaratish va butun ta'lismiz tizimida sifat o'zgarishiga erishish, ta'limning uzluksizligini ta'minlash imkonini beradi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayat darajasining yuksalishi ta'lismiz tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lismiz sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lismiz sifatini oshirish, intellektual salohiyatlari, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lismiz tizimni yaratish ko'zda tutildi.

Maktabgacha ta'lismiz uzluksiz ta'lismiz tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lismiz tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniqa, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lismiz muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lismiz muassasalarini soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lismiz bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mayjud maktabgacha ta'lismiz muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lismiz sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagি nutqida: "Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lismiz muassasalariga to'liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz", - deb ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, o'tgan qisqa vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Maktabgacha ta'lif tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi farmon va qarorlari imzolandi. Barcha sohalar qatori tizimda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarning ijrosi boshqa sohalar qatori Davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida bo'layotganligini guvohi bo'lmoqdamiz.

Kuni kecha Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, istiqboldagi vazifalar belgilab berildi.

Jumladan, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, mактабгача та'лим сифатини ошириш, мактабгача та'лим муассасаларидаги балаларни мактабга сифатли тайярлашни тубдан яхшилаш, та'лим-тарбиya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, mактабгача та'лим муассасаларига pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qо'yildi. E'tirof etish kerakki, mazkur qonun loyihasining ishlab chiqilishi o'z navbatida ta'lim sohasiga oid milliy qonunchiligidan yanada takomillashuviga, sohaga oid barcha munosabatlarning huquqiy asoslari mustahkamlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagি bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning butun kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining infratuzilmasи va moddiy-texnik jihozlanishini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmоqda. Shunday ekan, tizim oldiga qo'yilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash biz Qonunchilik palatasi deputatlardan ham faollikni va mas'uliyatni talab etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari infratuzilmasи va moddiy-texnik bazasining hozirgi holati bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga imkon bermayapti. Shu bois, bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasini tubdan isloh qilish va yangicha modellashtirilgan o'quv tarbiyaviy jarayonini boshlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha tarbiya muassasasini boshqarish bilan bog'liq ravishda rejalashtirish va prognozlash pedagogik tahlil asosida aniq atrof-muhit sharoitida bolalar bog'chasining yaqin va kelajakdagi rivojlanish zonalarini aniqlash. Qolaversa maktabgacha ta'lismuassasasi to'g'risidagi namunaviy nizom o'qituvchilar tarkibiga o'z faoliyat yo'nalishlarini mustaqil ravishda belgilab, maktabgacha ta'lismuassasalarining tur xilmashilligiga muvofiq bolalar bog'chasini rivojlantirish modelini yaratish va maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturini tanlash huquqi rejalashtirilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. "Maktabgacha pedagogika" F.R.Qodirova. "Tafakkur" nashriyoti Toshkent 2019.
2. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat." N.N.Azizzodjaeva Toshkent 2005 .
3. O'zbek pedagogikasi antologiyasi [tuzuvchilar: K. Hoshimov, S. Ochil]
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi: pedagogik tadqiqotlar yo'nalishi va muammolari.
15. 5. [uz/ru/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/eshitishida-va-ko-rishidanuqsoni-bo-lgan-bolalar](http://uz/ru/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/eshitishida-va-ko-rishidanuqsoni-bo-lgan-bolalar)
16. Engaging Deaf and Hard of Hearing Students in the School Library: A Handbook for Teacher-Librarians Nadene Eisner University of Illinois at Urbana-Champaign Graduate School of Library Information Science 2 May 2012
17. <http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/116/Maxsus%20pedagogika.pdf>
18. [https://mitc.uz/uz/pages/information\\_technologies](https://mitc.uz/uz/pages/information_technologies)
19. Shokirjon o'g'li, A. D., & Solijon o'g'li, T. U. (2022). The Application of Digital Technologies to Enterprises and Organizations Will Help Reduce Social and Economic Costs. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 4, 131-140.
20. Abdullajonov, D. (2022). Raqamli texnologiyalar orqali Yangi O'zbekistonning Iqtisodiyotini rivojlantirish, Raqamli Iqtisodiyotning istiqbollari: Raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, raqamli O'zbekiston, AKT, "Bir million dasturchi", axborot xavfsizligi, elektron tijorat. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000006).
21. Abdullajonov, D. (2022). Корхонада ходимларнинг меҳнат мотивациясини кучайтиришнинг ижтимоий-иқтисодий механизmlарини такомиллаштириш: меҳнат мотивациясини, хориж тажрибаси, самарадорлиги, корпоратив тизимлар, инновацион иқтисодиёт. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000005).

22. Қосимова, Г. Қ. Қ. (2021). Мамлакатимизда камбағаллик даражасини камайтириш йўллари. *Scientific progress*, 2(7), 808-816.
23. O'zbekiston Respublikasi prezidentining «Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga 1-ilova "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. 2020 yil 5 oktyabr, PF-6079-son.
24. Kambarov, J., Rakhmatov, U., Rakhmonov, N., & Sultanova, Y. (2020). Problems and solutions for the implementation of the industry-4.0 program in Uzbekistan. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2677-2683.
25. Toxirov, R. S., & Raxmonov, N. R. O. G. L. (2021). Dasturiy ta'minot yordamida zamonaviy boshqaruvni tashkil etish istiqbollari. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 1(1), 181-186.
26. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(6), 250-254.
27. Rahmonov, N. (2021). Korona inqirozning xitoy va o'zbekiston savdo-iqtisodiy aloqalariga ta'siri. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000003).
28. Rahmonov, N. (2021). Бизнес Режа Тузишда Математиканинг Аҳамияти. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000003).
29. "Aqlii" qishloq xo`jaligi - raqamli texnologiyalar. G.Q.Qosimova, F.M.Mulaydinov
30. G.Q.Qosimova, F.M.Mulaydinov. Iqtisodiyot va biznesda innovasion rivojlanish muammolari. Ilm va madaniyat yosh olim va etakchilar nigohida: xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi, 26 iyun 2020 y. – Qo`qon. 172-174 betlar.
31. D.SH.Abdullajonov, G.Q.Qosimova. Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida hamda qishloq va suv xo`jaligida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish.

**TEXNALOGIYANING TA'LIMDAGI O'RNI VA AHAMIYATI****Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li,**

Qo'qon Universiteti, biznes kafedrasi o'qituvchisi,

**Isroilova Dilraboxon Ibrohimjon qizi,**

Qo'qon universiteti talabasi

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada innovatsion ta'limgan texnologiyalari, ta'limgan texnologiyalari tasnifi, umuman o'quv jarayonidagi o'rni, fanlarni o'rganishda o'quv jarayoni samaradorligini oshirish uchun an'anaviy va innovatsion yondashuvlar, FSES HPE ga o'tish sharoitida sotsiologiyani o'qitish amaliyotiga innovatsion ta'limgan texnologiyalarini joriy etish muammosi tahlili qisqacha yoritilgan.

**Annotation.** This article discusses innovative educational technologies, classification of educational technologies, their role in the educational process in general, traditional and innovative approaches to increase the effectiveness of the educational process in the study of sciences, sociology in the transition to FSES HPE An analysis of the problem of introducing innovative educational technologies into the practice of the unit is briefly described.

**Kalit so'zlar:** axborot texnologiyalari, ta'limgan, metod, fses hpe.**Keywords:** information technology, education, method, fses hpe.**KIRISH**

Hozirgi davrda ta'limgan axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, mana shu sababli barchamiz «yangi pedagogik texnologiyalar» atamasini ishlata boshladik. Bir misol, shaxsiy kompyuter ta'limgan imkoniyatlarini butunlay o'zgartirib yubordi. Internet letoplар ta'limgan tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarini tatbiq etish bo'yicha yanada kattaroq imkoniyatlar yaratib berdi. O'zbekistonning mustaqilligi sharoitlarida ta'limgan tizimini isloh qilish birinchi navbatda ta'limgan va tarbiya tizimiga ilg'or axborot texnologiyalarning tatbiq etish bilan bog'liq.

Ma'lumki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mikroelektronika, hisoblash texnikasi (apparatli vositalar va dasturiy ta'minotlar), elektroaloqa va antoelektronika-mikroprosessorlar, yarimo'tkazgichlar va optik-tolali kabellar sohalaridagi kashfiyotlar bilan bog'liq.

Bu kashfiyotlar ulkan axborotlarni ishlab chiqish va saqlashga hamda ularni kommunikasiya tarmoqlari orqali tez tarqatish imkonini beradi. Kompyuterlarni bir-biriga ulash va ularni bir-

biri bilan aloqa qilishga sozlash yangi kuchli texnologik tizimni umumiy protokoldan foydalanuvchi tarmoq axborot sistemalarini yaratishga imkon beradi. Ular odamlarni, ularning uylarini va idoralarni birlashtiradi hamda juda qisqa vaqt ichida ulkan topshiriqlar sonini ishlab chiqadi va bajaradi. Bu axborotlardan foydalanish xususiyatini va kommunikasiya tuzilishini tubdan o'zgartiradi. Shu bilan birga kompyuter tarmoqlari Yer sharining barcha nuqtalari bilan aloqa qilish imkonini beradi. Ta'lism tizimi uchun bu o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtaida kommunikasiya uchun yangi imkoniyatlar yaratib beradi.

Hozirgi paytda kompyuter tarmoqlari davrida yangi texnologiyalarni yaratish va tarqatish xususiyatlari o'zgarmoqda hamda bu quyidagi yo'nalishlarda sodir bo'lmoqda: birinchidan, yuksak raqobatchilik hukm surishi bilan ajralib turadigan zamonaviy global bozorda ko'nikmalar har qachongidan ham katta ahamiyatga ega. Texnologiyalarni uzatish va tarqatish juda murakkab jarayon. Ikkinchidan, texnologiyalar qimmatliligin tan olinishini aks ettiruvchi yangi global normalarni ishlab chiqish ham katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Deyarli barcha mamlakatlar tomonidan maqullangan yangi qoidalari intellektual xususiylikni himoya qilish rejimlarini barcha yerda kuchaytirmoqda. Uchinchidan, butun dunyoda ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstrukturlik loyihalashtirish sektorida xususiy sektor yetakchi rol o'ynaydi. Bu sektorda yangi texnologiyalarni ishlab chiqish uchun zarur moliyaviy mablag'lar, bilimlar va kadrlar katta qismi jamlangan. To'rtinchidan, eng yuksak malakali texnik mutaxassislarni ish bilan ta'minlovchi global mehnat bozori shakllanadi. Beshinchidan, yangi kompaniyalar, ilmiy-tadqiqotchilik laboratoriylari va moliyalashtiruvchilar hamda korporasiyalar yangi texnologiyalar ishlab chiqarish global markazlariga birlashmoqdalar. Buning natijasida olimlar, moliyalashtiruvchilar va tadbirkorlarning o'zaro zarur aloqalarini ta'minlovchi yangi dinamik muhit yuzaga kelmoqda.

### **Tahlil va natija.**

Ta'lism tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lism texnologiyalarining rolini oshirish bilan tavsiflanadi. Talabalar tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishining ta'lism olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvga asoslangan uchinchi avlodning yangi davlat ta'lism



standartlarini joriy etish talabaning tobora faol ishtirok etishi asosida bir qator fanlarni, shu jumladan sotsiologiyani o'qitish uslublarida sezilarli o'zgarishlarni nazarda tutadi. ta'limgarayonining to'liq ishtirokchisi, uning katta mustaqilligi, aniq amaliy natijaga qaratilgan mashg'ulotlar.

Zamonaviy sharoitda Rossiyaning strategik rivojlanishining asosiy yo'nalishi har tomonlama modernizatsiya bo'lib, uning asosiy sharti innovatsion salohiyatga va uni amalga oshirish imkoniyatlariiga ega ijtimoiy sub'ektlarning mavjudligidir. Oliy ta'limgarayonining yetakchi o'rindan tutadigan ushbu jarayonda ta'limgarayonining ishtirokisiz modernizatsiya jarayonlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratish mumkin emas.

"Ta'limgarayonining texnologiyasi" tushunchasi keng qo'llanilishiga qaramay, o'zboshimchalik bilan ajralib turadi. Zagvyazinskiyning ta'kidlashicha, o'quv jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar turlari "aniqrog'i o'quv yoki pedagogik emas, balki o'qitish deb ataladi va ishlab chiqarish sohasidan olingan atamaning o'zi, albatta, ta'limgarayonining tizimining ishtirokisiz modernizatsiya jarayonlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratish mumkin emas.

Texnologiya va metodologiyani farqlash muammosi hali ham juda ziddiyatli. Ba'zi olimlar texnologiyani metodologiyani amalga oshirish shakli deb hisoblashsa, boshqalari texnologiya tushunchasi metodologiyadan kengroq deb hisoblashadi. Zagvyazinskiy texnologiya va metodologiya ilmiy huquqiy qoidalar tizimiga asoslanishi kerak, deb hisoblaydi (ya'ni, ular tizimli xususiyatga ega), ammo ideal texnologiya qat'iy belgilangan retseptlar tizimiga ega bo'lib, ular maqsadga erishish uchun kafolatlanadi. Metodologiya nazariy qoidalarni amalga oshirish usullarining xilma-xilligini, o'zgaruvchanligini ta'minlaydi va shuning uchun maqsadga kafolatlangan erishishni anglatmaydi, ya'ni. hatto ideal texnika ham yuqori instrumental emas.

Mavjud ta'limgarayonining keng doirasi ularni tasniflashni taklif qiladi. Garchi bugungi kunda ta'limgarayonining yagona, aniq belgilangan tasnifi mavjud bo'lmasa-da, bir qator tadqiqotchilarning e'tiborini ikkita texnologiya guruhi jalb qilmoqda: an'anaviy va innovatsion ta'limgarayonining texnologiyalarini. otsiologiyani o'qitish amaliyatiga zamonaqiyatiga joriy etish muammolarini o'rganish maqsadida biz Belgoroddagi universitetlarning sotsiologiya va maxsus sotsiologik fanlar o'qituvchilari. Ma'lumotlarni qayta ishlash "Ha-tizim" paketi yordamida amalga oshirildi. So'rov natijalari quyidagilarni ko'rsatdi.

Universitetda sotsiologiya va maxsus sotsiologik fanlarni o'qitish amaliyotiga yangi ta'lif texnologiyalarini joriy etish zarurligini hozirda respondentlarning 84,61 foizi deb javob bergan respondentlarning umumiy soni Respondentlarning atigi 15,38 foizi "alohida ehtiyoj yo'q" degan javobni tanlagan. Bu ma'lumotlar oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari sotsiologiya o'qitish amaliyotiga innovatsion texnologiyalarini joriy etish orqali o'quv jarayonini o'zgartirish zarurligini anglab yetganligidan, shuningdek, o'qitishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi. Mamlakatimizda oliy ta'lif tizimini modernizatsiya qilish munosabati bildiradi

Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda biz o'qituvchining lavozimi va ilmiy fan sifatida sotsiologiyani o'qitishdagi ish stajiga qarab o'zaro guruhlarga e'tibor qaratdik. Yillar o'qitish amaliyotiga yangi ta'lif texnologiyalarini joriy etish zarurligini ko'rsatmoqda. Bizning fikrimizcha, buni yoshlarning ijodkorligi va tayyorgarligi bilan izohlash mumkin. ta'lif jarayonidagi innovatsiyalarga, ish tajribasi etarlicha uzoq bo'lganlar innovatsion texnologiyalarning rolini biladilar va ulardan foydalanish orqali o'quv jarayoniga rang-baranglik olib kirishni xohlashadi. Qizig'i shundaki, universitetda sotsiologiya fanini o'qitish tajribasi 3 yildan 6 yilgacha bo'lganlar sotsiologiyani o'qitish amaliyotiga yangi ta'lif texnologiyalarini joriy etishga "alohida ehtiyoj" yo'qligini aniq ko'rsatmoqda - respondentlarning 100 foizi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lif samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir.

### Xulosa

O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o'z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo'yicha bilimlarini chuqur o'zlashtirishlarining asosiy omili bo'lib, ta'lif-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi. Ayni shunday sa'y-harakatlar amalga oshirilishi ta'lif jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o'qituvchilarni ilg'or

pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasini chuqur o'rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta'lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [uz/ru/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/eshitishida-va-ko-rishida-nuqsoni-bo-lgan-bolalar](http://uz/ru/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/eshitishida-va-ko-rishida-nuqsoni-bo-lgan-bolalar)
2. Engaging Deaf and Hard of Hearing Students in the School Library: A Handbook for Teacher-Librarians Nadene Eisner University of Illinois at Urbana-Champaign Graduate School of Library Information Science 2 May 2012
3. <http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/116/Maxsus%20pedagogika.pdf>
4. [https://mitc.uz/uz/pages/information\\_technologies](https://mitc.uz/uz/pages/information_technologies)
5. Shokirjon o'g'li, A. D., & Solijon o'g'li, T. U. (2022). The Application of Digital Technologies to Enterprises and Organizations Will Help Reduce Social and Economic Costs. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 4, 131-140.
6. Abdullajonov, D. (2022). Raqamli texnologiyalar orqali Yangi O'zbekistonning Iqtisodiyotini rivojlantirish, Raqamli Iqtisodiyotning istiqbollari: Raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, raqamli O'zbekiston, AKT, "Bir million dasturchi", axborot xavfsizligi, elektron tijorat. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000006).
7. Abdullajonov, D. (2022). Корхонада ходимларнинг меҳнат мотивациясини кучайтиришнинг ижтимоий-иқтисодий механизmlарини такомиллаштириш: меҳнат мотивациясини, хориж тажрибаси, самарадорлиги, корпоратив тизимлар, инновацион иқтисодиёт. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000005).
8. Қосимова, Г. Қ. Қ. (2021). Мамлакатимизда камбағаллик даражасини камайтириш йўллари. Scientific progress, 2(7), 808-816.
9. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "«Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga 1-ilova "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. 2020 yil 5 oktyabr, PF-6079-son.

10. Kambarov, J., Rakhmatov, U., Rakhmonov, N., & Sultanova, Y. (2020). Problems and solutions for the implementation of the industry-4.0 program in Uzbekistan. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2677-2683.
11. Toxirov, R. S., & Raxmonov, N. R. O. G. L. (2021). Dasturiy ta'minot yordamida zamonaviy boshqaruvni tashkil etish istiqbollari. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 1(1), 181-186.
12. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 250-254.
13. Rahmonov, N. (2021). Korona inqirozning xitoy va o'zbekiston savdo-iqtisodiy aloqalariga ta'siri. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000003).
14. Rahmonov, N. (2021). Бизнес Режа Тузища Математиканинг Аҳамияти. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000003).
15. "Aqlii" qishloq xo'jaligi - raqamlı texnologiyalar. G.Q.Qosimova, F.M.Mulaydinov
16. G.Q.Qosimova, F.M.Mulaydinov. Iqtisodiyot va biznesda innovation rivojlanish muammolari. Ilm va madaniyat yosh olim va etakchilar nigohida: xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi, 26 iyun 2020 y. – Qo'qon. 172-174 betlar.
17. D.SH.Abdullajonov, G.Q.Qosimova. Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida hamda qishloq va suv xo'jaligida raqamlı texnologiyalarni keng joriy etish.

**DAVLAT RIVOJI YO'LIDA KADR SALOHIYATI O'RNI****Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li,**

Qo'qon Universiteti, biznes kafedrasi o'qituvchisi,

**Mahmudjonova Sevara,**

Qo'qon Universiteti, boshlang'ich va ta'lim yo`nalish talabasi,

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kundagi davlat rivoji yo'lida kadr salohiyati o'rni, kutilayotgan o`zgarishlar, sifatli kadr tayyorlashni muammo va yechimlari qisqacha yoritilgan.

**Annotation.** This article briefly describes the role of human resources in the development of the state today, the expected changes, problems and solutions for quality training.

**Аннотация.** В данной статье кратко описывается роль человеческих ресурсов в развитии государства на сегодняшний день, ожидаемые изменения, проблемы и решения для качественного обучения.

**Kalit so'zlar:** Ilm, davlat rivojlanishi, kadr salohiyati.

**Keywords:** Science, state development, human resources.

**Ключевые слова:** наука, государственное развитие, человеческие ресурсы.

**Kirish.**

Mamlakatimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, uning hur istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Albatta, bu e'tibor zamirida mamlakatimiz yoshlarini har tomonlama kamol toptirish, ularni yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan, har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishdek ezgu maqsad mujassam. Ayniqsa, yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini bilimli va bunyodkor yoshlar bilan birgalikda barpo etish, ana shu muhim yo`nalishlarda boshlagan ishlarni davom ettirish va yangi, yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida, o'tgan 2021 yilda mamlakatimizda «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili», deb nom berishni taklif qilgani xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz tomonidan katta xursandchilik bilan kutib olindi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat, kuchli salohiyat egasi etib tarbiyalash borasidagi muhim amaliy ishlarni davom ettirishimiz zarur va asosiy maqsadimiz ham yetuk malakali

mutaxassislarni tayyorlashdan iborat hisoblanadi. Zero, yoshlar ertangi kunimizning egalari hisoblanadi. Ularni biz bugun qanchalik ilmiy, ma'naviy, ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlasak, kelajagimiz shunchalik yorqin bo'lishiga shak-shubha yo'q.

Hammaga ma'lumki insoniyat o'tgan uzoq yillardan hozzirgi kunga qadar erishgan yutuqlari taqsinga sazovor. Uzoq tarixga biroz tuhtalgan ekanmiz shu o'rinda aytish joizki insonda mustahkam iroda, erishish uchun qo'yilgan aniq va o'zgarmas maqsadlar, intilish yo'lidagi to'siqlardan cho'chimaslik hissi va albatta Alloh tomonidan insonga berilgan boshqa tirik mavjudotlardan farqli ongimiz bu bizning eng buyuk imkoniyatlarimizdan biridir. Agar inson o'zidagi manashu imkonyatlardan asta-sekin bo'lsada foydalana olmaganda, yoki qiyin ekanligini bilsada taslim bo'lmay harakat qilmaganida balkim hozzirgi imkoniyatlar, bizga oddiy holdek tuyilishni allaqachon boshlagan atrofimizdagi qaysidir ma'noda mo'jizalar balkim bo'lmasdi. Lekin bunday bo'ljadi insoniyat buni uddasidan chiqdi ibtidoiy holatidan bugungi tobora mukammalashib borayotgan jarayonga yetib keldi. Biz buni uddaladik!

